“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=377

2026-yil
7-son
iyul
ISSN 3093-8546



Odil sudlovni amalga oshirishga koʻmaklashuvchi shaxslar ishtirokini raqamlashtirish istiqbollari

Rayxon Ibragimova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti
e-mail: rayxonibragimova135@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada odil sudlovni amalga oshirishga koʻmaklashuvchi shaxslar – ekspertlar va mutaxassislar, tarjimonlar, guvohlar va boshqa protsessual ishtirokchilarning sud jarayonidagi rolini raqamlashtirish istiqbollari tahlil qilinadi. Sud-huquq tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali sud jarayonlarining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, masofaviy ishtirok, elektron hujjat aylanishi, videokonferensiya tizimlari hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining qoʻllanilishi natijasida yordamchi shaxslarning sud jarayonidagi ishtiroki yangi bosqichga koʻtarilishi asoslab berilgan. Maqolada raqamlashtirish bilan bogʻliq muammolar, jumladan, raqamli tenglik, axborot xavfsizligi va protsessual kafolatlarni ta’minlash masalalari ham koʻrib chiqilgan.

Калит сўзлар. : odil sudlov, raqamlashtirish, sud jarayoni, guvoh, ekspert, tarjimon, elektron sud tizimi, videokonferensiya, sun’iy intellekt, axborot xavfsizligi, protsessual ishtirokchilar, raqamli texnologiyalar, masofaviy ishtirok

Аннотация. В данной статье анализируются перспективы цифровизации роли лиц, содействующих отправлению правосудия - экспертов и специалистов, переводчиков, свидетелей и других участников процесса в судебном процессе. Освещены возможности повышения прозрачности, оперативности и эффективности судебных процессов путем внедрения современных информационно-коммуникационных технологий в судебно-правовую систему. Также обосновано, что в результате применения дистанционного участия, электронного документооборота, систем видеоконференций и технологий искусственного интеллекта участие вспомогательных лиц в судебном процессе поднимется на новый уровень. В статье также рассматриваются проблемы, связанные с цифровизацией, включая обеспечение цифрового равенства, информационной безопасности и процессуальных гарантий.

Ключевые слова. правосудие, цифровизация, судебный процесс, свидетель, эксперт, переводчик, электронная судебная система, видеоконференция, искусственный интеллект, информационная

безопасность, участники процесса, цифровые технологии, дистанционное участие

Annotation. This article analyzes the prospects for digitalizing the role of persons assisting in the administration of justice - experts and specialists, interpreters, witnesses, and other procedural participants in the judicial process. The possibilities of increasing the transparency, speed and efficiency of judicial processes through the introduction of modern information and communication technologies into the judicial system are highlighted. It is also substantiated that as a result of the use of remote participation, electronic document management, video conferencing systems, and artificial intelligence technologies, the participation of auxiliary persons in the judicial process will reach a new level. The article also examines issues related to digitalization, including ensuring digital equality, information security, and procedural guarantees.

Keywords. justice, digitalization, judicial process, witness, expert, interpreter, electronic court system, video conferencing, artificial intelligence, information security, procedural participants, digital technologies, remote participation

Bugun raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib kelgan boʻlib, sud-huquq tizimi bundan mustasno emas. Sud jarayonlarini raqamlashtirish, ayniqsa odil sudlovni amalga oshirishga koʻmaklashuvchi shaxslar — ekspertlar va mutaxassislar, tarjimonlar, guvohlar va boshqa protsessual ishtirokchilar faoliyati uchun alohida ahamiyat kasb etmoqda. Raqamlashtirish sud jarayonlarining samaradorligini oshirish, inson omili bilan bogʻliq xatoliklarni kamaytirish va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Bu tendensiya elektron sud tizimlari, videokonferensiya, masofaviy ishtirok va boshqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining sud jarayonlariga keng joriy etilayotganini koʻrsatadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raqamlashtirish toʻgʻrisida “butun dunyoda raqamli texnologiyalar barcha soha va odamlar hayotiga jadal kirib bormoqda. Bu yoʻnalishga oʻz vaqtida kirishgan davlatlar rivojlanib, aksincha, eskicha ishlaganlar taraqqiyotdan orqada qolyapti” degan fikrni ta'kidlab oʻtgan.

Raqamlashtirish odil sudlovni amalga oshirishga koʻmaklashuvchi shaxslarning faoliyatini tizimli, nazorat qilinadigan va samarali shaklga keltirish imkonini beradi. Elektron hujjat aylanishi, ekspert xulosalarining elektron shaklda taqdim etilishi va tarjimonlarning onlayn faoliyati sud jarayonlarida shaffoflikni oshiradi va barcha ishtirokchilar uchun teng imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlarning ishonchliligi va shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi dolzarb masalalardan biridir. Shu sababli, odil sudlovni amalga oshirishga koʻmaklashuvchi

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

shaxslarning sud jarayonidagi ishtirokini raqamlashtirish nafaqat texnologik, balki ijtimoiy va protsessual jihatlarni ham qamrab oluvchi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalarni davom ettirish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bugun internet, raqamli texnologiyalarsiz hech qaysi sohani tasavvur qilish mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida: “Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi” deb beriladi. Odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar ishtirokini raqamlashtirish istiqbollari mavzusi zamonaviy huquqiy islohotlar jarayonida alohida dolzarblik kasb etmoqda. J.Donoghue: “Sud jarayonining raqamlashtirilishi yordamchi shaxslarning ishtirokini kengaytiradi va sud tizimini yanada ochiq qiladi”[1] deb yozadi. Chunki sud-huquq tizimining samaradorligi nafaqat sudyalar faoliyati, balki ushbu jarayonda bevosita yoki bilvosita ishtirok etuvchi boshqa subyektlarning, xususan, ekspertlar va mutaxassislar, tarjimonlar, guvohlar ishtirokini raqamlashtirish orqali sud jarayonlarining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini oshirish, inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytirish, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish hamda fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash mumkin. Sud masalasida zamonaviy texnologiyalarni faol jalb qilish odil sudlovga ko‘mak beradi. A.A.Vlasov shunday yozadi: “Sud jarayonlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish ishtirokchilarning o‘zaro aloqalarini soddalashtirib, protsessual muddatlarning qisqarishiga olib keladi”[2].

Raqamlashtirish jarayonlari global miqyosda jadal rivojlanib borayotgan bir paytda, sud-huquq tizimida ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar faoliyatini raqamlashtirish ularning sud jarayonidagi ishtirokini yanada tizimli, nazorat qilinadigan va samarali shaklga keltirish imkonini beradi. Masalan, guvohlarning sud majlislarida masofaviy ishtiroki, ekspert xulosalarining elektron shaklda taqdim etilishi, guvohlarning videokonferensiya orqali so‘roq qilinishi kabi mexanizmlar allaqachon bir qator rivojlangan davlatlarda keng qo‘llanilmoqda. Fuqarolik sudlarida masofaviy texnologiyalari jalb qilinishi katta yengillikdir. “Sudlarda raqamli vositalar samaradorlikni oshiradi va masofaviy kirish texnologiyalari orqali guvohlar hamda ekspertlar kabi huquqiy ishtirokchilarning kengroq qatnashishini ta'minlaydi”[3].

Odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar tushunchasi huquqiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi, biroq umumiy ma'noda ular sud ishini ko‘rishda yordam beruvchi, dalillarni aniqlash, baholash yoki tushuntirishga xizmat qiluvchi subyektlar sifatida qaraladi. Ushbu shaxslar qatoriga guvoh,

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ekspert, mutaxassis, tarjimon va boshqa texnik xodimlar kiradi. Ularning faoliyati samarali tashkil etilmas ekan, sud jarayonining sifatli va adolatli yakun topishi qiyinlashadi. Shu bois, ularning ishtirokini raqamlashtirish masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Yana onlayn ishtirok masalasi ham muammolidir. “Sudlarda onlayn ishtirok guvohlar va boshqa ishtirokchilarning sudga kirish imkoniyati kengayadi, ammo raqamli tenglik muammolari mavjud”[4]. Buning ayrimlari texnik imkoniyatlar bilan bog‘liq. Boshqa muallif bu masalani shunday yozadi: “Virtual sudlar barcha ishtirokchilarni yagona raqamli makonga birlashtirib, ularning teng va faol ishtirokini ta'minlaydi”[5].

Alohida qayd etadigan bo‘lsak, fuqarolik sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish – fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarning odil sudlovni amalga oshirish jarayonida sud hamda sud protsessining boshqa ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan protsessual harakatlarni raqamli shaklda amalga oshirishdir[6].

Raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu sud jarayonlarini elektron platformalar orqali boshqarishdir. Elektron sud tizimlari orqali barcha ishtirokchilar yagona axborot makonida faoliyat yuritadi. Bu esa hujjat almashinuvi, majlislar jadvali, dalillar bazasi va boshqa muhim ma'lumotlarni tezkor va ishonchli tarzda boshqarish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, advokatlar va prokurorlar uchun maxsus elektron kabinetlar joriy etilishi ularning ish samaradorligini oshiradi. Ushbu kabinetlar orqali ular ish materiallari bilan tanishishi, sudga hujjatlarni yuborishi, majlislar haqida xabardor bo‘lishi mumkin.

Sud ekspertlari va mutaxassislar faoliyatini raqamlashtirish ham alohida e'tibor talab qiladi. Chunki ekspert xulosalari ko‘pincha ishning hal qiluvchi dalillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Elektron ekspertiza tizimlari orqali ekspert xulosalarini tayyorlash, saqlash va taqdim etish jarayonlari standartlashtiriladi. Bu esa xulosalarning ishonchliligini oshiradi hamda ularni qalbakilashtirish ehtimolini kamaytiradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash orqali ekspertiza jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Elektron vositalarning sudga jalb qilinishi fuqarolik sudlarida vaqt omilini tejash imkoniyatini beradi. Masalan, “Elektron sud tizimlari orqali protsessual shaxslarning masofaviy ishtiroki odil sudlovga kirish imkoniyatini kengaytiradi”[7].

Guvohlar ishtirokini raqamlashtirish ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Videokonferensiya aloqa vositalari orqali ularning masofadan turib sud majlislarida ishtirok etishi ta'minlanadi. Bu, ayniqsa, uzoq hududlarda yashovchi yoki xavfsizlik nuqtai nazaridan sudga kelishi qiyin bo‘lgan shaxslar uchun katta qulaylik yaratadi. Shu bilan birga, ushbu mexanizm sud jarayonlarini tezlashtirishga ham xizmat qiladi. Sud ishlarini raqamlashtirish istiqbollari ham juda muhim. “Raqamlashtirish sud jarayonini tubdan o‘zgartirib, yordamchi shaxslarning ishtirokini tezkor va moslashuvchan shaklga olib keladi”[8].

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Tarjimonlar faoliyatini raqamlashtirish esa koʻp tilli jamiyatlarda odil sudlovni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Onlayn tarjima tizimlari va sinxron tarjima texnologiyalari orqali sud jarayonlarida til bilan bogʻliq toʻsiqlarni bartaraf etish mumkin. Bu esa barcha ishtirokchilarning huquq va manfaatlarini teng darajada himoya qilishga xizmat qiladi.

Raqamlashtirish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Sud tizimida muomalada boʻladigan ma'lumotlar koʻpincha maxfiy va shaxsiy xarakterga ega boʻlganligi sababli, ularni himoya qilish uchun zamonaviy kriptografik vositalar va xavfsizlik protokollaridan foydalanish zarur. Aks holda, ma'lumotlarning sizib chiqishi yoki noqonuniy foydalanilishi jiddiy huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, raqamlashtirish jarayonida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish ham muhimdir. Elektron hujjatlar, raqamli imzo, onlayn sud majlislari kabi institutlarning huquqiy maqomini aniq belgilash zarur. Bu borada xalqaro tajribani oʻrganish va milliy qonunchilikka moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, elektron dalillarning maqomi va ularni baholash mezonlarini belgilash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Gʻarbda bugun **“Distributed court”** modeli juda muhim. Unga koʻra: “Distributed court modeli orqali guvoh va boshqa shaxslar masofadan turib teng huquqli ishtirok etadi, bu esa odil sudlov sifatini oshiradi”[9]. Bu modelni A.T.Bonner fikri bilan shunday davom ettirsak boʻladi: “Sud ekspertizasi jarayonlarini raqamlashtirish ekspert xulosalarining shaffofligini ta'minlaydi va inson omili bilan bogʻliq xatoliklarni kamaytiradi”[10].

Odil sudlovni amalga oshirishga koʻmaklashuvchi shaxslar ishtirokini raqamlashtirish nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-psixologik jihatlarni ham oʻz ichiga oladi. Chunki yangi tizimlarni joriy etish jarayonida inson omili muhim rol oʻynaydi. Ushbu shaxslarning raqamli koʻnikmalarini oshirish, ularni yangi texnologiyalarga moslashtirish, doimiy oʻqitish va malakasini oshirish zarur. Aks holda, eng ilgʻor texnologiyalar ham kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Raqamlashtirishning yana bir muhim jihati bu ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashdir. Elektron tizimlar orqali sud jarayonlari haqida keng jamoatchilikka ma'lumot berish, sud qarorlarini ochiq e'lon qilish fuqarolarning sud tizimiga boʻlgan ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, bu holat sud faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi.

Kelgusida odil sudlovni amalga oshirishga koʻmaklashuvchi shaxslar ishtirokini raqamlashtirish yanada chuqurlashib borishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt, blokcheyn, katta ma'lumotlar tahlili kabi ilgʻor texnologiyalar sud tizimiga keng joriy etilishi mumkin. Masalan, blokcheyn texnologiyasi orqali sud hujjatlarining oʻzgarmasligini ta'minlash, sun'iy intellekt yordamida esa sud ishlarini tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlari yaratiladi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Xulosa qilib aytganda, odil sudlovni amalga oshirishga koʻmaklashuvchi shaxslar ishtirokini raqamlashtirish sud-huquq tizimini modernizatsiya qilishning muhim yoʻnalishlaridan biridir. Ushbu jarayonni izchil va kompleks yondashuv asosida amalga oshirish orqali sud tizimining samaradorligi, shaffofligi va adolatliligi sezilarli darajada oshiriladi. Shu bois, mazkur yoʻnalishda ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish, amaliy tajribalarni keng joriy etish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. J.Donoghue. The rise of digital justice: Courtroom technology, public participation and access to justice, Modern Law Review, 2017.
2. А.А.Власов. Цифровизация правосудия в Российской Федерации. – Москва: Норма, 2021.
3. National Center for State Courts. Trends in State Courts 2022: Digital Transformation. – Williamsburg, VA, 2022. – p. 23.
4. N.Byrom. The Impact of COVID-19 Measures on the Civil Justice System, UK Civil Justice Council, 2020.
5. M.Rossner. Presence and participation in a virtual court, Criminology & Criminal Justice, 2021.
6. O.Sh.Pirmatov. Fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirish va virtuallashtirish. // yuridik fanlari doktori dissertatsiyasi Avtoreferati. Toshkent-2023.
7. В.М.Лебедев Современные технологии в судопроизводстве. – Москва: Юрайт, 2020. – С. 112.
8. M. Rossner. Presence and participation in a virtual court, Criminology & Criminal Justice, 2021.
9. D.Tait. Distributed court and virtual justice participation, 2021.
10. А.Т.Боннер Электронное правосудие и доказательства. – Санкт-Петербург: Питер, 2019.